

YAPON TILIDAGI TAXMINNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI: ようだ VA らしい MISOLIDA

N.M. Xamidova

UzDJTU katta o'qituvchisi,

Y.A. Sabirova

UzDJTU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon tili grammatikasida keng ko'lamda foydalaniladigan taxminni ifodalovchi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] modal so'zlari tavsifiy tadqiq qilinib, o'zbek tili bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi yapon tilidagi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklarining qiyosiy tahlil qilish orqali yapon tilini o'rganuvchilar uchun o'xshash birliklarni qo'llashda vaqt, joy, vaziyatga e'tiborlarini qaratish va yapon madaniyatini chiqirroq tushuntirishdan iborat.

***Kalit so'zlar :** modal so'zlar, taxmini ifodalash, noaniqlikni ifodalash, -ga o'xshaydi, -dek ko'rinadi, ようだ, らしい, そうだ, qiyosiy tahlil, semantik tahlil.*

ABSTRACT

In this article, the modal words ようだ [yo:da] and らしい [rashi:], which are widely used in Japanese grammar to express conjecture, are descriptively studied and comparatively analyzed with the Uzbek language. The aim of this research is to conduct a comparative analysis of the units ようだ [yo:da] and らしい [rashi:] in Japanese, to draw the attention of learners of the Japanese language to the appropriate use of these similar units in terms of time, place, and situation, and to provide a deeper understanding of Japanese culture.

***Key words:** modal words, expressing conjecture, expressing uncertainty, looks like, seems like, ようだ, らしい, comparative analysis, semantic analysis.*

АННОТАЦИЯ:

В этой статье рассматриваются модальные слова ようだ [yo:da] и らしい [rashi:], которые широко используются в японской грамматике для выражения предположения, для этого проведен описательный и сравнительный анализ с узбекским языком. Цель этого исследования заключается в проведении сравнительного анализа единиц ようだ [yo:da] и らしい [rashi:] в японском языке, чтобы обратить внимание учащихся японского языка на правильное использование этих похожих единиц в зависимости от времени, места и

ситуации, а также в предоставлении более глубокого понимания японской культуры.

Ключевые слова: модальные слова, выражение предположения, выражение неопределённости, похоже на, кажется, ようだ, らしい, сравнительный анализ, семантический анализ.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi Yaponiyaga tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalar, shu jumladan malakali kadrlar tayyorlashda o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish borasida bir qancha kelishuvlar imzolandi.¹ 2022 yilda Yaponiyaning Kokusaikoryukikin (Xalqaro almashnuv fondi) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotiga asosan, hozirgi kunda O'zbekistonda yapon tilini o'rganuvchilar soni 3000 nafardan ziyodni tashkil etadi.²

Xorijiy tilni ona yurtida yoki o'rganilayotgan til mamlakatiga borib o'rganish mumkin. Xorijiy tilni ona yurtida, aynan, yapon tilini O'zbekistonda o'rganishni olib qaraganda, mazkur jarayon asosan auditoriyada va darslik orkali chegaralangan muhitda o'rganiladi. Bunday muhit notabiiy hisoblanadi, masalan, auditoriyada darsliklarga tayangan holda yangi leksika va birliklar, ularning birikish qoidalari va xususiyatlari haqida ma'lumot berib boriladi. Ko'p hollarda esa, birliklarning qayerda qachon kimga nisbatan, qanday maqsadda ishlatilishi haqida darsda o'tilmaydi. Ayniqsa, bir biriga o'xshash ibora va birliklarni ajratishda yuqoridagi omillarni hisobga olish lozimdir.

Bundan kelib chiqadiki, talabalarga yapon tilidagi o'xshash ibora va birliklarni tushunish, farqlash va to'g'ri, o'rinli qo'llash nihoyatda qiyinchiliklar uyg'otadi.

Bundan tashqari, yapon tilidagi grammatik birliklar haqida o'zbek tilida to'liq ma'lumot berilgan manbalar nihoyatda kam, hamda ko'pincha bunday iboralar o'zbek tiliga bir xil tarjima qilinishi talabalarning noto'g'ri qo'llashining sababi deb ta'kidlay olamiz.

1. Yapon va o'zbek tillarida modallikni ifodalovchi birliklar.

Yapon tili - yuqori kontekstli til guruhiga kiradi. Shuning uchun ham insonlarning turli his-tuyg'ularini ifodalashning ko'p turlari mavjud. Yapon tilida 2, 3-shaxsning his-tuyg'u va xatti-harakatini ifodalashda qo'llaniladigan modallikni ifodalovchi birliklarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bularga ようだ [yo:da],

¹ Ozbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ 4553-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/4676874>)

² Kokusaikoryukikin (Xalqaro almashnuv fondi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomna natijalari) (<https://www.jpj.go.jp/j/project/japanese/survey/area/country/2022/uzbekistan.html>)

らしい [rashi:] そう [so:]、 みたい [mitai]、 っぽい [ppoi] kabilar misol bo'la oladi. Mazkur besh birlikni o'zbek tiliga birgina fe'l orqali “-ga o'xshaydi” deb tarjima qilish mumkin.

Modal so'zlar haqida O'zME. (2000)da, lotincha (modalis – “o'lchov”, “usul”) - so'zlovchining o'z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarni anglatadi. Yapon tilida ham o'zbek tilida ham modal so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli bo'ladi.

Modal so'zlar 2 katta guruhga bo'linadi: fikrning aniqligini ifodalovchi modal so'zlar, bularga rostlik, tasdiq-ishonch, qat'iylikni bildiruvchi so'zlar (darhaqiqat, haqiqatan, albatta, shubhasiz, so'zsiz va h.k.) kiradi. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar, bularga taxmin, gumon kabi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar (shekilli, chog'i, chamasi; ehtimol, balki, aftidan va boshqalar) kiradi.³Mazkur maqolada 2-turga tegishli bo'lgan taxminni ifodalovchi ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklari tahlil qilinadi.

MAVZU YUZASIDAN O'RGANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI.

Taxminni ifodalovchi birliklarni Morita(1980), Shibata(1982), Teramura(1984), Miyake(1995), Nobayashi(1999), Kikuchi(2000) va boshqa yapon tilshunoslari o'rgangan. Ularning ichida eng ko'p o'rganilgan birliklar ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] ekanligi ma'lum bo'di. Barcha o'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida 2 birlikning asosan ma'lumotlarni semantik tahlil qilishda ishlatiluvchi konstruksiyalar bo'lib, fe'llarga qo'shib taxminni ifodalaydi. Ushbu ikkita so'z ko'pincha o'xshash holatlarda ishlatiladi va o'zbek tiliga "-dek ko'rinadi", "-ga o'xshaydi" va “shekilli” deb tarjima qilish mumkinligi aniqlandi.

2. ようだ [yo:da] va らしい [rashi:] birliklarining qo'llanilishi.

⁴ ようだ [yo:da] birligining qo'llanilish doirasi

(1) あれ、この牛乳、ちょっと悪くなっている **ようです**。変なおいがします。

[Are, kono gyu:nyu:, chotto waruku natte iru **yo:desu**. Henna nioi ga shimasu.]

(Voy, bu sut, ozgina yomon bo'lib qolmoq+**ga o'xshaydi**. G'alati hid +(qo'shimcha) kelyapti.)

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shib kelgan. So'zlovchining 5ta his tuyg'ularidan biri,

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

⁴ Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoto, Masako Wakuri 『どんな時どう使う日本語表現文型辞典』 Aruku 2007.

hid bilish his tuyg'usiga asoslanib, sutni yomon bo'lib qolganini taxmin qilish iborasi sifatida “-ga o'xshaydi” shaklida qo'llanilib kelgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga his-tuyg'uga asoslanib taxmin qilish kiradi.

(2) この風邪薬を飲むとどうも眠くなる ようだ。今日も、飲んだ後眠かった。

[Kono kaze gusuri wo nomu to doumo nemuku naru yo:da. Kyo: mo, nonda ato nemukatta.]

(Mana bu shamollashga qarshi dori judayam uyqu keltirmoq+ga o'xshaydi. Bugun ham, ichganimdan keyin uyqim keldi.)

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shib, so'zlovchining shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda (so'zlovchi ushbu dorini qabul qilganidan keyin juda ham uyqusi kelgan) dorining uyqu keltirishini taxmin qilish iborasi sifatida “-ga o'xshaydi” shaklida qo'llanilib kelgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga shaxsiy tajriba, boshdan kechirgan vaziyatlarga nisbatan taxmin qilish kiradi.

(3) 森さんは今日元気がない ようでした。何か心配なことがあるのでしょうか。

[Morisan wa kyo: genki ga nai yo:deshita. Nani ka shinpai na koto ga aru no deshouka.]

(Bugun janob Morining kayfiyati yo'q+ga o'xshaydi. Nimadandir xavotirlanayotganmikan.)

Ushbu gapda modallikni ifodalovchi ようだ [yo:da] birligi, gap ohiridagi bo'lishsiz fe'lga qo'shib kelgan. Suxbatdoshining yuz ifodasidan kelib chiqqan xulosasini yetkazib berishda “-ga o'xshaydi” iborasidan foydalanilgan. Ya'ni, so'zlovchi aniq xulosa qilish (birovning kayfiyati haqida ishonchi komil bo'lib so'zlash masuliyati)dan qochish maqsadida ushbu birlikdan foydalanilgan.

Demak, ようだ [yo:da] ning qo'llanilish doirasiga o'zgalarning his-tuyg'ulari yoki harakatlarini yetkazib berishdagi taxminiy xulosa ham kiradi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ようだ [yo:da] birligi 3 xil vaziyatlarda ishlatiladi. Ya'ni, so'zlovchining his-tuyg'ulariga asoslangan holda taxmin qilish (1); boshdan kechirgan va shaxsiy tajribaga asoslangan holda taxmin qilish (2); o'zgalarning his-tuyg'ulari yoki harakatlarini yetkazib berishdagi taxminiy xulosa qilish (3) da ishlatiladi. Qaysi usullardan foydalanishimizdan qat'iy nazar ようだ

[yo:da]birligi soʻzlovchiga vaziyat haqida butun masuliyatni oʻz zimasi olmasdan taxmin qilish imkonini beradi. Agarda yuqoridagi gaplarda ようだ [yo:da] birligidan foydalanilmasa, soʻzlovchi vaziyatga nisbatan 100% ishonchi komil va fikri toʻgʻriligini isbotlovchi qandaydir asosi bordek boʻlib qoladi. Shuning uchun ham soʻzlovchi bunday aniq xulosa qilishdan qochish maqsadida ようだ [yo:da] birligidan foydalangan.

らしい [rashi:] birligining qoʻllanilish doirasi

(4) あの子はにんじんがきらいらしいね。いつもにんじんだけ残すよ。

[Ano ko wa ninjin ga kirai **rashii ne**. Itsumo ninjin dake nokosuyo.]

(Ana u bola **sabzini yoqtirmaydi shekilli**. Har doim faqat sabzini qoldiradi.)

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, gap ohiridagi sifatga qoʻshilib kelgan. Soʻzlovchining koʻrish va kuzatish his-tuygʻusiga asoslanib, sabzidan boshqa hammasi yeyilgan va faqat sabzi qolganligini koʻrgani uchun sabzini yoqtirmasligini taxmin qilish iborasi sifatida “shekilli” shaklida qoʻllanilgan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qoʻllanilish doirasiga his-tuygʻu va kuzatishga asoslanib taxmin qilish kiradi.

(5) ヤンさんは今日本にはいないらしいです。メールを送ったけど返事が来ません。

[Yan san wa ima nihon ni wa inai **rashiidesu**. Me-ru wo okutta kedo henji ga kimasen.]

(**Aftidan**, janob Yang bugun Yaponiyada emas **shekilli**. Xabar joʻnatgan edim, ammo javobi kelmadi. (asos))

Mazkur gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi gap oxirida feʻlning boʻlishsiz shakliga qoʻshilib kelgan. Soʻzlovchi xabariga javob kelmaganini asos qilib olgan holda, janob Yangning mamlakatdan tashqarida ekanligini taxmin qilish iborasi “aftidan, shekilli” tarzida qoʻllanilgan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qoʻllanilish doirasiga soʻzlovchining qandaydir asosga tayanib taxmin qilish kiradi.

(6) 天気予報では、今日は雨が降るらしいですよ。台風が近づいているらしいです。

[Tenki yohou dewa, kyou wa ame ga furu **rashiidesuyo**. Taifu: ga dzuite iru **rashiidesu**.]

(Ob-havo maʼlumotlariga koʻra bugun yomgʻir yogʻmoq+**ga oʻxshaydi**. Toʻfon yaqinlashmoq+**ga oʻxshaydi**.)

Ushbu gapda modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, gap oxirida fe'ning lug'aviy shakliga qo'shilib kelgan. So'zlovchi eshitgan ma'lumoti haqida xabar berish maqsadida “-ga o'xshaydi” iborasidan foydalangan.

Demak, らしい [rashi:] birligining qo'llanilish doirasiga so'zlovchining kimdandir yoki nimadandir eshitgan ma'lumotlariga asoslanib taxmin qilish kiradi.

Yuqoridagi misollar tahlilidan kelib chiqqan holda, modallikni ifodalovchi らしい [rashi:] birligi, so'zlovchi haqiqat deb taxmin qilgan ma'lumotlar yoki yangiliklar haqida axborot berishi aniqlandi. Bu taxminlar boshqa manbaalarda o'qilgan yoki eshitilgan, so'zlovchining haqiqat ekanligiga ishonish uchun asosga ega bo'lgan narsadan kelib chiqadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham so'zlovchi o'z taxminlariga 100% ishonchi komil bo'lmaydi va shuning uchun ham taxmini ifodalovchi らしい [rashi:] birligi qo'llaniladi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda so'zlovchi o'z his-tuyg'ulariga va tajribasiga tayangan holda taxmin qilsa ようだ [yo:da] birligidan foydalaniladi. Aksincha birovdan eshitgan yoki ko'rgan narsalari haqida taxmin qilishda らしい [rashi:] birligidan foydalaniladi. Bundan tashqari, らしい [rashi:] birligining qo'llanilishida qandaydir tashqi asoslarga tayangan holda xulosa qilinish holatlari ham mavjud.

Yapon tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi inson shubhasiz, ongsiz ravishda ikkila birlikni konstruksiyalaridan birini tanlashga, biri ikkinchisidan ko'ra qay darajada ko'proq mos kelishini juda yaxshi biladi. Ammo chet tili sifatida yapon tilini o'rganuvchilariga bu murakkablik qiladi. Yapon tili ta'limi nuqtaiy nazaridan, gap tuzlishi bo'yicha ko'rsatmalar shunchaki grammatik birliklarning ma'nosi va ishlatilishini tushuntirishga qaratilgan. Gap shakillaridan foydalanish nafaqat o'qitish, balki o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun ham foydalidir. Aksariyat darsliklarda har bir grammatik birliklar uchun faqat bitta jumla kiritilgan. Undan oldingi va keyingi jumlar kiritilmagan. Bu esa boshqa turli vaziyatlarda foydalanish holatlarini ko'ra olmaslikka olib keladi. Shunday holatlar kuztilmasligi uchun o'quvchilarga tabiiy ravishda tushinishlari mumkin bo'lgan kontekstlar taqdim etilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES):

1. Adachi, Taroo et al. Gendai Nihongo Bunpoo Volume 4: Part 8 Modariti [Modern Day Japanese Grammar Volume 4: Part 8 Modality]. Tokyo, Kuroshio Publishers, 2003.

2. Aoki, Haruo. Evidentials in Japanese. In Chafe W. & Nichols J. (eds.), *Evidentiality: The Linguistic coding of Epistemology*, 223–238. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation, 1986.
3. Asano-Cavanagh, Yuko. Semantic analysis of evidential markers in Japanese: Rashi:, Yooda and sooda. *Functions of Language*, 17(2), 153-180, 2010
4. Etsuko Tomomatsu, Jun Miyamoto, Masako Wakuri 「どんな時どう使う日本語表現文型辞典」, Aruku 2007.
5. Hojiyev A.Fe'l. "Hozirgi o'zbek adabiy tili".1980 Izohli lug'at 420-bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.